

## JISMONIY SHAXSLARGA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Tursunov Faridun Mustafoyevich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Bank ishi” kafedrasi assistant-stajyori

[tursunovfaridun4330@gmail.com](mailto:tursunovfaridun4330@gmail.com)

**Musirov Diyorbek Rustam o‘g‘li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

[musirovdiyorbek@gmail.com](mailto:musirovdiyorbek@gmail.com)

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o‘rni, bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, bank xizmatlarini rivojlantirishda uchraydigan ba’ze muammolar o‘rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba’ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan, shuningdek xorijiy banklarning faoliyatini o‘rganish va jismoniy shaxslar bilan ishlashning yangi shakllari va usullarini joriy etish nazarga tutilgan. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy iqtisodiyotida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish tizimini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** radikal iqtisodiyot, likvidlik, kapital, onlayn-banking, internet-banking, mobil-banking, investitsiya, transformatsiya, inflyatsiya, investitsiya.

## PROBLEMS AND PROSPECTS OF PROVIDING BANKING SERVICES TO INDIVIDUALS

## ABSTRACT

*This article examines the concept of banking services, its role and place in the activities of modern commercial banks, the main directions, advantages and disadvantages of the development of banking services, some problems encountered in the development of banking services, and some practical proposals and recommendations are given to solve these problems, as well as the study of the activities of foreign banks and the introduction In the modern economy of the Republic of Uzbekistan, the formation and development of a system for providing complex banking services to individuals is an urgent issue.*

**Keywords:** radical economy, liquidity, capital, online-banking, internet-banking, mobile-banking, investment, transformation, inflation, investment.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan radikal iqtisodiy islohotlar bank faoliyatini rivojlantirishda yangi bosqichni ochdi. Bozor sharoitida jismoniy shaxslarga bank xizmati ko‘rsatish muammolari va istiqbollari bilan bog‘liq masalalar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o‘z nutqida bu borada “...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko‘rishimiz lozim. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi” deya, aytib o‘tgan edilar [1].

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoev 2023 yilning 20 noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishlarida bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarning hozirgi holatini ko‘rib chiqildi. Har bir bank o‘zi sarmoya kiritgan loyihalarni chuqur tahlil qilib, ishga tushishini kuzatib borishi, hududlar va sohalarda samardorligi yuqori bo‘lgan loyihalarni amalga oshirishi zarurligi ta’kidlandi.

Ushbu o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun nafaqat O‘zbekiston Respublikasida, shuningdek xorijiy banklarning faoliyatini o‘rganish va jismoniy shaxslar bilan ishlashning yangi shakllari va usullarini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mavzuga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiyy nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildi. “Jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko‘rsatish bank faoliyatining, bir tomondan esa mijozning manfaatlari va e’tirozlariga jamlangan, boshqa tomondan esa bankka foydali bo‘lgan soha hisoblanadi” [2, 22 – bet].

“Mutaxassislar yuridik shaxslar uchun bank xizmatlari bozori allaqachon banklar o‘rtasida taqsimlanganligini bilishadi va ular o‘rtasidagi asosiy raqobat so‘nggi yillarda jismoniy shaxslar va kichik korxonalar mablag‘larini jalg qilish uchun rivojlanmoqda” [3, 497-bet]. “Bank biznesini yuritishga qo‘yladigan alohida talablar boshqa, aslida iqtisodiy sharoitlarda o‘rnatilgan va hozirgi vaqtda ortib borayotgan xavf darajasiga nisbatan etarlicha konservativ emas” [4, p.5].

Jarkovskaya E.P. ni fikricha “Bank xizmatlarini mijoz va bank xodimi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lgan bank ofisida emas, balki uyda, mijozning ofisida, ya’ni ikkinchisi uchun qulay bo‘lgan joyda ko‘rsatish kerak” [5].

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, aholiga xizmat ko‘rsatadigan banklarning rolini faollashtirishning ahamiyati shundan iboratki, eng kam xarajat bilan maksimal samaraga erishish, mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish, jismoniy shaxslarga bank xizmatlari sifatini yaxshilash, bank xizmatlari doirasini kengaytirish va ularning narxini pasaytirishdan iborat.

## **NATIJALAR**

Bank ishini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy muammolari, bozor iqtisodiyoti sharoitida bank xizmatlari bozori faoliyatining nazariy asoslari mahalliy olimlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy va o‘quv adabiyotlarida keng va batafsil

tavsiflangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini rivojlantirish muammosini har tomonlama o‘rganish uning tizimli tahlili va sintezini o‘z ichiga oladi. Ba’zi banklar omonatchiga har chorakda, oyda va hatto har kuni depozit bo‘yicha foizlarni olish imkoniyatini bergen va inflyatsiyani hisobga olgan holda foizlarni hisoblash bilan murakkab foizli depozitlarni qabul qilgan.

Ammo, shunga qaramay, jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalg qilishda bir qator muammolar mavjud:

- so‘mni sotib olish qobiliyatining pasayishi, shu munosabat bilan, barcha jismoniy shaxslar o‘z mablag‘larini banklarga ishonib topshirishga shoshilmaydilar, ularni xorijiy valyutaga investitsiya qilishni afzal ko‘rishadi;

- badavlat shaxslar xorijiy banklarga, likvid tovarlarga sarmoya kiritadilar va shunchaki tezavratsiyada (oltin to‘plashda) saqlaydilar.

- jismoniy shaxslarning tijorat banklariga bo‘lgan ishonchszligi muhim rol o‘ynaydi.

- fuqarolarning ba’ze qatlami iqtisodiy va huquqiy qonunlarni to‘liq bilmaydi.

Banklarning asosiy vazifasi yuqori sifatli mijozlarga xizmat ko‘rsatishdir. Hozirgi kunda banklar mijozlar bazasini zabit etishni yangi zamonaviy xizmatlar va bank mahsulotlarini, xususan, onlayn xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish bilan bog‘laydilar. Shuningdek, jismoniy shaxslarga bank xizmati ko‘rsatish muammosini o‘rganish darajasini aniqlaylik. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy iqtisodiyotida jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish tizimini shakllantirish va rivojlantirish muammosi kam o‘rganilgan.

## MUHOKAMA

Jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko‘rsatish mavzusidagi tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi:

- zamonaviy bosqich bank xizmatlari bozorida faoliyat yuritadigan kredit tashkilotlari moliya bozorining turli segmentlarida etarlicha to‘plangan tajribaga ega bo‘lishlari, iste’mol kreditlarini faol ravishda rivojlantirishlari, bank kartalaridan

foydalish doirasini kengaytirishlari, mijozlarning kredit tarixini shakllantirishning axborot va dasturiy tizimlaridan faol foydalishlari bilan tavsiflanadi.

- jismoniy shaxslarning bank xizmatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasi, avvalambor, aholining bank sektoriga bo'lgan ishonchining oshishi bilan izohlanadi. Aholining real mavjud daromadlarining o'sishi, kredit tashkilotlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlari sonining ko'payishi.

- mahalliy bank sektorining rivojlanishi yuqori o'sish sur'atlari, tijorat banklari o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, jismoniy shaxslarga bank xizmatlari ko'rsatish sohasida tijorat banklarining faollashishi bilan tavsiflanadi;

- sanoati rivojlangan mamlakatlar mijozlariga kompleks bank xizmati ko'rsatish tajribasi asta-sekin mahalliy tijorat banklari tomonidan joriy etilmoqda, ular yangi xizmatlarni taqdim etishni boshlaydilar, mijozlarning tobora murakkab ehtiyojlarini qondiradilar, bu esa ularning kredit resurslari va yangi mijozlarni jalb qilishda raqobatbardoshligini oshiradi.

## XULOSA

Iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar aholining bank sektori bilan faol hamkorligini talab qiladi. Banklar uchun bu o'zaro raqobat hisoblanadi va ularga yuklangan quyidagi funktsiyalar to'plami bilan ko'rsatiladi: Birinchidan, bu vositachilik funktsiyasidir, ya'ni tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotidagi iqtisodiy agentlar, shu jumladan uy xo'jaliklari o'rtasida aloqa vazifasini bajaradi. Jamg'arma shaklida aholidan vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'lar mamlakat bank tizimida to'planadi, so'ngra tijorat banklari orqali investitsiyalarga yuboriladi, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun resurslar shakllantiriladi. Banklar kreditlar, to'lovlar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha vositachilik qiladilar. Vositachilik mezoni bitimning ikkala tomoni uchun ham rentabellikdir. Shu bilan birga, qarzga berilgan va olingan mablag'lar uchun to'lov qarz mablag'larining talab va taklifi ta'siri ostida shakllanadi.

Shunday qilib, bankning xizmatlari va tariflari to'g'risidagi ma'lumotlar katta ahamiyatga ega deb aytishimiz mumkin. Aholi ushbu moliyaviy agent bilan

hamkorlik qilish xavfini, o‘zlari uchun mumkin bo‘lgan foyda yoki yo‘qotishlarni aniqlash uchun ma’lumotlardan erkin foydalanishlari kerak. Bularning barchasi ushbu tadqiqot yo‘nalishining dolzarbligini ta’kidlaydi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagи «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori.
2. Копылова Г.А., Конвисарова Е.В. Анализ услуг Сбербанка России по депозитным вкладам физических лиц // Территория новых возможностей. Вестник Владивостокского государственного университета экономики и сервиса. – 2015. – № 2 (29). – С. 22–30.
3. Леликова Н.А., Конвисарова Е.В. История и современные тенденции развития малого бизнеса в России//Успехи современного естествознания. – 2015. – № 1-3. – С. 496–498.
4. Пасько А.В., Корень А.В. Проблемы банковского надзора в Российской Федерации // Современные научные исследования и инновации. – 2014. – № 5-2 (37). – С.
5. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» /Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.